

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NADIROVA ZOYIRA PAYANOVNA

INTUITIV BILISHNING FALSAFIY – SINERGETIK JIHLTLARI

09.00.01-Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора наук (DSc)

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Nadirova Zoyira Payanovna Intuitiv bilishning falsafiy–sinergetik jihatlar.....	3
Надилова Зойира Паяновна Философско-синергетические аспекты интуитивного познания.....	35
Nadirova Zoyira Payanovna Philosophical and synergetic aspects of intuitiv cognition	59
E’lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works	59

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NADIROVA ZOYIRA PAYANOVNA

INTUITIV BILISHNING FALSAFIY – SINERGETIK JIHATLARI

09.00.01-Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2024.2.DSc/Fal62 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb- sahifasida (www.nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Turaev Baxtiyor Omanovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ramatov Jumaniyoz Sultonovich
falsafa fanlari doktori, professor

Davronov Ziyod
falsafa fanlari doktori, professor

Ortiqov To‘lanboy Ortiqovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc. 30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « ____ » _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24; faks (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 1000174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy, O‘zbekiston Milliy universiteti Ma‘muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel: 236-46-55, faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « ____ » _____ da tarqatildi.

2025 yil « ____ » _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi.

I.Saifnazarov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

G.M.Shadimetova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

O‘.G‘.Tilavov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda intuitiv va sinergetik metodologik yondashuvlar raqamli texnologiyalarning jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida, inson tafakkurining yangi imkoniyatlarida, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning tartibsizlikdan tartiblilik tomon rivojlanishida o'z ifodasini topmoqda. Intuitsiya suniy intellekt, nanotexnologiyalar, biologik identifikatsiya qilish texnologiyalarini ixtiro qilishning falsafiy sinergetik metodologiyasi sifatida amal qilmoqda. Ayni paytda intuitsiya imkoniyatlaridan qora magiya usuli, okkult imkoniyatlar vositasi sifatida aholining turli qatlamlari ongiga ta'siri avj olmoqda. Shu bois, intuitiv sinergetik tafakkur uslubi imkoniyatlaridan jamiyatning progress maqsadlarida foydalanishning metodologik yondashuvlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda intuitsiya kelajakni oldindan bashorat qilish, tabiiy va ijtimoiy ofatlarning oldini olishdagi o'rnini asoslash, kundalik ong darajasida insonlarning o'z taqdirini oldindan bilishga intilishini qondirishga yo'nalgan ilmiy va falsafiy metod sifatidagi ahamiyatini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Intuitsiyaning tarixiy ahamiyatini va uning sinergetik tafakkur uslubi bilan mutanosibligini tahlil etish, tabiiy va ijtimoiy gumantiar fanlarning metodologik yondashuvi sifatidagi rolini asoslashda ilmiy, falsafiy va tarixiy manbalarga murojaat etilmoqda. Intuitiv sinergetik tafakkur uslubining kreativ uslub sifatida ilmiy yangiliklarni yaratishda foydalanishning takomillashgan mexanizmlarini yaratishga ehtiyoj oshmoqda.

O'zbekistonda intuitsiya metod sifatida ijtimoiy va tabiiy jarayonlarni baholash, ularning salbiy oqibatlarini oldini olish, inson tafakkurining imkoniyatidan unumli foydalanish vositasi sifatida ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida foydalanilmoqda. Bu jarayonda buyuk mutafakkirlarning boy ma'naviy merosiga murojaat qilish, ularning asarlaridagi ilmiy g'oyalarni tahlil qilish, intuitsiyaning ahamiyatini tushunish va barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish mexanizmi sifatida o'rganishga ehtiyoj oshmoqda. Jamiyat taraqqiyotini intuitiv bilish metodologiyasi sifatida «O'zbekiston – 2030» strategiyasini barqaror taraqqiyot sharti va kafoloti sifatida amaliyotga joriy etish davrning ruhiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020 yil 30 iyundagi PF-6017-son «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son «Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2021 yil 1-apreldagi PF-6198-son «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi

tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi farmonlari, 2025 yil 21 apreldagi PF-68-son «Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018 yil 23 iyundagi PQ-3080-son «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 iyundagi 466-son «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Xorijiy davlatlarning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, xususan University of Pittsburgh (AQSh), Duquesne University (AQSh), Palm Beach Atlantic University (AQSh), California State University (AQSh), Charlotte University (AQSh), Stavropol davlat universiteti (Rossiya), Vyatskiy davlat universiteti (Rossiya)da intuitiv bilishning falsafiy sinergetik jihatlari, ratsional va irratsional tafakkur, ilmiy va badiiy ijodning rivojlanishidagi o'rni, uning insonning ongli va ongsiz faoliyatini tashkil etishidagi ahamiyatini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. AQShning Pitsburg universitetida kognitiv fanda konseptual rivojlanish va qarama qarshiliklar birligi, (University of Pittsburgh, AQSh); AQShning Duquesne universitetida (Duquesne University, AQSh) tasavvur, aql va intuitsiya o'rtasidagi dinamik jarayon, AQShning Palm Beach Atlantika universitetida falsafada intuitiv va reflektiv jarayonlarining ijtimoiy ongga ta'siri tasniflangan (Palm Beach Atlantic University, AQSh); AQShning Kaliforniya davlat universitetida (California State University, AQSh) falsafiy nazariyalarda intuitsiyaning rivojlanish bosqichlari, AQShning Sharlotta Universitetida (Charlotte University, AQSh) bolalarda kuzatiladigan ilk epistemologik e'tiqodning shakllanishida axloqiy intuitsiyaning ahamiyati, Rossiyaning S.P.Koroleva nomidagi Milliy tadqiqot universitetida («Samarskiy natsionalnyy issledovatel'skiy universitet imeni akademika S.P.

¹<http://www.simanticscolar.org>; <http://www.dsc.duq.edu>; <http://www.philsci-archivie.pitt.edu>; <http://www.researchgate.net>; <http://www.dessercat.com>; <http://www.old.bukhari.uz>.

Koroleva», Rossiya) bilish jarayonida intuitsiyaning ontognoseologik chegaralarining o'rnini tadqiq etilgan.

Shuningdek, jahon ilmiy adabiyotlarida intuitsiya va sinergetikaning metodologiya sifatida ilmiy falsafiy jihatlari, tabiiy va ijtimoiy fan sohalarida intuitiv sinergetik yondashuvning o'rnini, dunyoning innovatsion manzarasini shakllantirishda intuitiv metodologiyaning roli, inson tafakkurining imkoniyatlariga baho berishda intuitsiyaning ahamiyati, sinergetik metodologiyaning fluktuatsiya, bifurkatsiya, atraktor tamoyillaridan ijtimoiy jarayonlarga baho berish metodologiyasi sifatida foydalanishning ahamiyatini asoslashga e'tibor qaratilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Intuitsiyaning ijtimoiy ongga ta'siri Qadimgi davr yunon faylasuflari Pifagor sonlarni qo'shish va ayirish amaliyoti natijasida ijtimoiy jarayonlarni intuitiv darajada prognozlashtirish mumkinligini², Platon intuitsiyaning ilohiy ijodkorlik mahsuli sifatidagi ahamiyatini³, Aristotel intuitsiya kategoriyalarining mohiyatini tushunishdagi o'rnini⁴ asoslagan.

Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy «Fozil odamlar shahri»⁵ asarida fozil va johil shahar aholisining fazilatlariga, Abu Ali Ibn Sino «Xay ibn Yakzon»⁶ risolasida ratsional va irratsional bilim. Abu Homid G'azzoliyning «Mukoshafat ul-qulub»⁷ asarida irratsional bilishning mohiyatiga, Jaloliddin Rumiyning «Ma'naviy masnaviy» va «Ichingdagi ichingdadur»⁸, Aziziddin Nasafiyning «Zubdat ul – haqoyiq» («Haqiqatlar qaymog'i») ⁹ kabi asarlarda ilmiy ijod jarayonida tadqiqotchi olimning ruhiy irratsional tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar o'rganilgan.

G'arb faylasuflari F.Bekon «Yangi Organon»¹⁰, R.Dekart «Metodlar haqida

² Пифагор//Всемирная энциклопедия – Киев: Современные тетради, 2001. – С.451.

³ Платон. Диалоги//Тимей. – М.: Наука, 1972. – С.56.

⁴ Аристотель. Никомахово этика. – М.: Наука, 2015. – С.34.

⁵Абу Nasр Форобий. Рисолалар. – Тошкент: Фан, 1975. – 143 б.; Аль-Фараби. Китаб ал-хуруф. / Естественно-научные трактаты. Пер. с арабского. – Алма-Ата: Наука, 1987. – С.496.; Фозил одамлар шаҳри. Абу Nasр Форобий. / таржимонлар Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 320 б.

⁶ Ибн Сино. Асбаб ал-худуд ал-хуруф. (А.Махмудов, Қ.Махмудов). – Тошкент: Юлдузча, 1983.; Абу Али ибн Сина. Донишнамэ. – Сталинабад: Таджикгосиздат, 1957. – С.286.; Ибн Сина. Избранные произведения. – Душанбе: Ирфон, 1980.

⁷ Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат-ул қулуб. // Миразиз Аъзам таржимаси. – Тошкент: Адолат, 2002.

⁸ Мавлоно Жалолiddин Румий. Маснавийий маънавий // Форсийдан Жамол Камол таржимаси. – Тошкент: 2005. – 392 б.

⁹ Азизиддин Насафий. Зубдат ул ҳақойиқ // Нажмиддин Комилов таржимаси. – Тошкент: Камалак, 1995.

¹⁰ Ф.Бэкон Новый органон. – М.: Наука, 1996

mulohazalar»¹¹, I.Kant «Sof aqlning tanqidiga doir»¹², G.Gegel «Ruh fenomenologiyasi»¹³ asarlarida intuitsiyani ilmiy bilish metodi sifatidagi roli va uni insonning ijodiy tafakkur mahsuli sifatidagi mohiyati ochib berilgan, J.Lokk¹⁴, V.Leybnis¹⁵, ratsional va irratsional tafakkur imkoniyatlarida intuitsiyaning ahamiyatini ochib berganlar. Iogann Fixte¹⁶ va Artur Shopengauer¹⁷ intuitsiyani ichki harakat, Zigmund Freyd¹⁸ intuitsiyani ongsizlikning ijodiy ko‘rinishi, F.V.Shelling¹⁹ sub’ekt va ob’ekt munosabatlarini tashkil etishdagi o‘rni, Anre Bergson intuitivizmi shaxsning individual borlig‘i bilan bog‘liq jihatlari²⁰, ingliz olimi M.Bunge²¹ intuitsiyaning turlarini asoslagan. XX asrda mantiqiy tahlil bilan shug‘ullanuvchi Vena to‘garagi vakillari M.Shlik, O.Neyrat, R.Karnap, X.Xan, F.Vaysman, K.Gyodel, G.Feygl, G.Reyxenbax, F.Frank, A.Ayer mantiqiy pozitivizm doirasida intuitsiyaning namoyon bo‘lishiga oid g‘oyalarini asoslashgan²². B.Rassel²³, N.O.Losskiy²⁴ intuitivizmning mohiyatini, A.N.Luk²⁵ ilmiy ijodda intuitsiyaning rolini, Ya.A.Ponomarev²⁶ ruhiyat va intuitsiya dialektikasini, M.I.Panov²⁷ intuitsiya, ijod va mantiq mutanosibligini, I.I. Chesnokova²⁸ o‘z o‘zini anglash jarayonida intuitiv bilimning ahamiyatini, K.G.Yung²⁹ ongsizlikning intuitsiyaga ta’sirini ochib berganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida L.Ya.Zorina, V.G.Vinenko, M.A.Danilov (Rossiya), Z.Janabaev, N.Xmel (Qozog‘iston), V.A.Ignatova, V.V.Kazyutinskiy, V.S.Stepin, A.Pugacheva (Rossiya)larning tadqiqotlarida

¹¹ Декарт Р. Правила для руководства ума (1628). Сочинения в 2 т. – Т.1. – М.: Мысль, 1989. – С.77-153. Декарт Р. Сочинения. Т.1. – М.: Мысль, 1989. – 151 с. Радугин. А.А. Философия: курс лекции – 2 е изд., перераб. И дополн. – М.: Центр, 1999. – 86-90 с. Соколов В.В. Европейская философия XV-XVII веков; Учеб. – 2 е изд., испр и доп. – М.: Высшей школа., 1996, – С.211. Канке В.А. Философия. Исторический и систематический курс. – М.: Логос, 1999. – С.82. Кузнецов Б.Г. Разум и бытие. Этюды о классическом рационализме и неклассической науке. – М.: Наука, 1972. – С.106. Соколов В.В. Европейская философия XV-XVII веков: Учеб. – 2е изд., испр и доп. – М.: Высший школа, 1996. – С.211.

¹² Кант И. Критика чистого разума. – М.: Мысль, 1994. – 591 с; Кант И. Собр.соч. в 6-ти томах. – М.: 1963-1966. – С.129-132. Кант И. Критика способности суждения. – М.: Гелиос, 1995. – 720 с.

¹³ Гегель Г. Работы разных лет. В 2-х т. – М.: Мысль, 1970. – 668 с.

¹⁴ Локк Дж. Сочинения в 3-х т. Т.1. Опыт о человеческом разумении. – М.: Мысль, 1985. – С. 78-582.

¹⁵ Лейбниц Г.В. Логические и гносеологические работы. 1670-1690. // Сочинения в четырех томах: Т. 3. – М.: Мысль, 1984. – С. 54-734.

¹⁶ Фихте И.Г. Избранные сочинения. Т. 1. – М.: Наука, 1966. – 249 с.

¹⁷ Шопенгауэр А. Мир как воля и представление. Т.2. – М.:1901. – 238 с.

¹⁸ Фрейд З. Психология бессознательного. Сборник произведений. – М.: Просвещение, 1989.

¹⁹ Шеллинг Ф. Введение в философию мифологии // Соч. – М.: Мысль, 1989. – С.159-374.

²⁰ Бергсон А. Творческая эволюция. – М.: 1998. – 429 с.

²¹ Карнап Р., Хан Х., Нейрат О. Научное миропонимание — венский кружок // Логос, 2005, № 2(47). - С. 20.

²² Карнап Р., Хан Х., Нейрат О. Научное миропонимание – венский кружок // Логос, 2005. № 2(47). – С. 20.

²³ Рассел Б. Интуиция и научное творчество. – М.: Наука, 1999. – С.101-102.

²⁴ Лосский И.О. Интуитивизм. – М.: Лад, 1990. – 150 с.

²⁵ Лук А.Н. Интуиция и научное творчество. – М.: Наука, 1981.

²⁶ Пономарев Я.А. Психика и интуиция. – М.: Политиздат, 1967. – 256 с.

²⁷ Панов М.И. Интуиция, логика, творчество. – М.: Наука, 1987.

²⁸ Чеснокова И.И. Проблема самосознания в психологии. – М.: Наука, 1977. – 144 с.

²⁹ Юнг К.Г. Психология бессознательного. – М.: Канон, 1994. – 320 с.

intuitsiyaning ilmiy tafakkurga ta'siri va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni asoslangan. V.R.Irina, A.A.Novikov³⁰ asarlarida intuitsiyaning ijtimoiy ong darajalari bilan bog'liqligini, Knyazeva, Kurdyumov, V.Budanov intuitsiyaning murakkab tafakkur uslubi sifatidagi sinergetik jihatlarini, intuitiv bilish jarayonida sinergetik metodologiya prinsiplaridan samarali foydalanishning ahamiyatini asoslagan. Ye.Galeeva modellashtirishning amaliy falsafa bilan bog'liq jihatlarini tahlil etishda intuitiv metodologiyaning o'rnini ochib bergan.

V.Gorbatyuk intuitsiyaning sinergetik tamoyillari xususida fikr yuritib, intellektning ba'zi modellari va ko'p sonli aqllar nazariyasini va V.Lebedev iqtisodiyot, sotsiologiya va gumanitar fanlarda sinergetik tamoyillardan foydalanishning ahamiyatini asoslagan. A.G.Madjuga sinergetik intuitsiya tafakkur tamoyillarini va sinergetik madaniyat tushunchalarini tahlil etgan. V.Mukushev, O.Malysheva, V.Muxopad, A.Nazaretyan kabi olimlar sinergetik metodologiyaning intuitiv bilish jarayonidagi rolini asoslashgan³¹. O.V.Semenesning «Intuitsiyaning sub'ektiv g'oyasi: qiyosiy tahlil» maqolasini, I.M. Saveleva va A.V. Poletaevning «Tarix va intuitsiya: romantiklar merosi» risolasini nashr qilganlar.

O.B Selivanova «Ilmiy bilimda intuitsiya va tushunish», N.N. Korolyova «Ilmiy intuitsiya falsafiy tushuncha sifatida» mavzusida, S.N. Rodyginaning «Din dunyoqarashni bilish shakli sifatida», Andrey Borisovich Firstovning «Haqiqatni ontologik va gnoseologik tushunish: falsafiy tahlil tajribasi», Andrey Viktorovich Moiseev «O'z-o'zini anglash tajribasi sub'ektivlikning ontologik strategiyasi sifatida» Lusine Shagenovna Bagdasaryanning «Kognitiv faoliyat tizimida intuitsiya»³² Timur

³⁰ Ирина В.Р., Новиков А.А. В мире научной интуиции. – М.: Наука, 1987. – С.191.

³¹ Князева Е. Н., Курдюмов С. П. Основания синергетики. – М.: Алетея, 2002. – С.414; Методология синергетики в постнеклассической науке и в образовании / В. Г. Буданов. – 2-е изд., испр. – М.: URSS, 2008. – С.230; Галеева Е.И. Синергетический подход в теории управления социально-экономическими системами / Е.И.Галеева. – Казань: Таглитат, 2006 (Казань). – С.123; Горбатюк В.Ф. Системы естественного интеллекта: синергетика образования: монография / В.Ф.Горбатюк; Таганрогский институт имени А.П.Чехова. – Таганрог; Ростов-на-Дону: Легион-М, 2018. – С.253; Лебедев В.И. Синергетические модели в экономических и гуманитарных науках: монография / В. И. Лебедев, И.В.Лебедева; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Северо-Кавказский федеральный университет. – Ставрополь: Сев-Кавк. федер. ун-т, 2018. – С. 222; Маджуга А.Г.Концептуально-методологические основания педагогической синергетики: монография / А.Г.Маджуга, Л.К.Фортова, А.М.Юдина. – Sterlitaмак: Полиграфия, 2019. – С.212. Назаретян А.П. Цивилизационные кризисы в контексте Универсальной истории: синергетика, психология и футурология / А. П. Назаретян. – 2-е изд. – М.: Саратов: ПЕР СЭ, Ай Пи Эр Медиа, 2019. – 240 с. Малышева О.Л. Самоорганизация и командная работа: учебно-методическое пособие / О.Л.Малышева; Министерство образования и науки Российской Федерации, Казанский национальный исследовательский технологический университет (ФГБОУ ВО "КНИТУ"). – Казань: Бриг, 2020. – С. 193; Мухопад В.И. Интеллектуальная собственность в современной экономике: система и ее синергетика: учебник / В. И. Мухопад. – М.: Магистр: ИНФРАМ, 2021. – С. 624.

³² Степанова О. Интуитивные компоненты в процессе принятия решения: Дис канд.философии.наук. – М.: 2004. Семенец О.В. Субъективное представление об интуиции: сравнительный анализ. – М.: 2009. Савельева И.М., Полетаев А.В. История и интуиция: наследие романтиков. – М.; ГУВШЭ, 2003. Киров Н. Религия как форма мировоззренческого познания: Дис...канд.философии.наук. 2007. Фирстов А.Б. Онтологическое и гносеологическое понимание истины: опыт философского анализа: Дис канд.филос.наук. – Уфа: 2010. Моисеев А.В. Опыт самосознания как онтологическая стратегия субъективности: Дис канд.филос.наук. Ростов-на-Дону – 2007. Багдасарян Л.Ш. Интуиция в системе когнитивной деятельности: Дис канд.филос.наук. – М осква: Нальчик, –

Murmanovich Artemev «Tushunishdagi intuitsiya va aks ettirish»³³, Artur Eduardovich Baxmetev «Idrok tarkibida intuitsiyaning onto-gnoseologik chegaralari»³⁴ mavzularida nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilganlar.

O‘zbek faylasuf olimlari, O.Fayzullaev³⁵ fan rivojida intuitsiyaning ahamiyati, M.Abdullaeva³⁶ abstrakt metodning intuitiv bilim shakllanishidagi rolini, I.Saifnazarov³⁷, B.Karimov³⁸, B.To‘raev³⁹, K.J.Tulnova⁴⁰, Z.Davronov, N.Shermuxamedova⁴¹, E.M.Izzetova, Q.Nazarov⁴² Sh.Qo‘shoqov, I.Hoshimova, Z.Qodirova, G.G‘.G‘affarova, M.Q.Niyazimbetov, D.Bozorovlar intuitiv – sinergetik bilishning ba’zi jihatlarini asoslashgan, samarali izlanishlar olib borgan⁴³. A.A.Azizqulov ilmiy ijodda ratsionallik va irratsionallikning o‘zaro mutanosibliyida

2010. Камалова, Ольга Н. Интуиция как философского антропологическая проблема. Дис канд.филос.наук. – Ростов на Дону, 2005. – С.141. Научная и художественная формы интуиции: сущность, особенности, развития и самоорганизация: Дис канд.филос.наук/ Бондарейко, Александр Викторович. Уфа 2007. Шумаков, Вадим А.Ч. Эвристическая интуиция в свете общих методологических идеи синергетики: Дис канд.филос.наук. 2007. Машенцев, Алексей В. Интуиция и ценностная ориентация в познании: Дис...канд.филос.наук. – Санкт Петербург: 2003. Олюшина, Мария Викторовна. Интуиции и дискурс: исторические типология и современное состояние. Дис канд.фил.наук. – Санкт Петербург, 2003. Грибаков, Сергей В. Интуиция в гуманитарном познании: Дис канд.филос.наук. – Нижний Новгород, 2003. Олюшина М.В. Интуиция и дискурс (историческая типология и современное состояние). Дис...канд.филос.наук. – Санкт Петербург: 2005. – С.180.; Бирюков Д.В. Бессознательное природа интуиции и её роль в предвидения // Автореф. дис.канд.филос.наук. – Ташкент: 1976.

³³ Артемьев Т.М. Интуиция и рефлексия в понимании: Дис... кан. фил. наук. – Санкт-Петербург: 2014.

³⁴ Бахметьев А.Э. Онтогносеологические границы интуиции в структуре познания: Дис... кан. филос.наук. – Самара. 2021.

³⁵ Файзуллаев О. Фалсафа ва фан методологияси –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – 124 б.

³⁶ Синергетиканинг табиий-илмий ва фалсафий муаммолари. Таҳрир ҳайъати М.Н.Абдуллаева ва бошқалар. – Наманган: НамДУ, 2009; Синергетика: ривожланиши ва истиқболлари. Республика илмий анжумани материаллари. М.Н.Абдуллаева ва бошқалар. – Наманган; НамДУ, 2010;

³⁷ Исмоил Саифназаров. Янги Ўзбекистон: Инсон кадри улуғланган юрт. – Тошкент: “ИЛМ-ЗИЁ-ЗАКОВАТ” 2023. – Б. 209.

³⁸ Каримов Б.Р. Проблема развития и синергетика. Ташкент: 1995; Ўзбекистон фани ва технологияларида инновация: муаммолар, ечимлар, ва истиқболлари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Масъул муҳаррир Ш.С.Қўшоқов. Самарканд: СамДУ, 2007;

³⁹ Тураев Б.О. Онтология, гносеология, логика ва фан фалсафаси муаммолари. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон МК нашриёти, 2015. Тураев Б ва б.қ.лар. Синергетика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. Жамоавий монография. –Тошкент: “Наврўз”, 2017.Тураев Б. Онтология, гносеология, логика ва фан фалсафаси муаммолари. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2015. – 376 б. Тураев О.Б. Синергетика-3 маънавий мерос. Тошкент: “Fan ziyosi”, 2023 -470 б.

⁴⁰ Туленова К. Предвидение и реальность. – Тошкент: 1998. –100 с.

⁴¹ Шермухамедова Н. Фан фалсафаси. – Тошкент: Ношир, 2013. – 316 б.

⁴² Назаров К. Факторы, формирующие в духовность человека. Развитиедиспорологиив условиях глобализации. Коллективная монография. Германия 2024. С.110.

⁴³ Қўшоқов Ш. Табиатшунослик фалсафаси. СамДУ, 2004; Назаров К. Билиш фалсафаси. – Тошкент: Университет, 2005; Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006; Абдуллаева М. Философия случайности. «Синергетика: Ривожланиши ва истиқболлари», – Тошкент: 2010; Тураев Б. Оламнинг синергетик фазо ва вақт манзараси// Синергетик парадигма: муаммо ва имкониятлар. Илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент: 2013; Махмудова Г. Эволюция зороастрийской религии вконтекстеее сложноорганизованной системы // Синергетик парадигма: муаммо ва имкониятлар. Илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент: 2013. Раҳманов Б. Инсон рухий-маънавий ўз-ўзини ташкиллаштиришининг фалсафий илдизлари. - Самарканд.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2015. Ғаффарова Г.Ғ. Мураккаб тизимларда ахборот генерацияси. Монография. – Тошкент: “Noshir”, 2021.

intuitsiyaning roli⁴⁴, Sh.Qahhorova G‘arb va Sharq falsafasida intuitiv bilishning ahamiyatini ochib berganlar⁴⁵. G.Qobulniyozova F.Nisshe va A.Bergsonning hayot falsafasida inson muammosining qiyosiy tahlili⁴⁶, G.Sultonova, M.Ergashovalar nochiziqdi tafakkur, ta’lim jarayonining sinergetik xususiyatlarini asoslashgan.⁴⁷

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ushbu olimlar tomonidan intuitsiyaning ilmiy-nazariy va tarixiy-falsafiy jihatlari asoslangan. Biroq, ilmiy bilishda intuitsiyaning sinergetik tahlili ilmiy-falsafiy va metodologik jihatlari deyarli o‘rganilmagan. Shu bois, ushbu tadqiqot ishida intuitsiyaning ilmiy-psixologik, ijtimoiy-madaniy sifatidagi ahamiyati tadqiq etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishi rejasining «Falsafiy innovatsiyalar: konsepsiyalar va metodologik yondashuvlar» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi intuitiv bilishning ilmiy-falsafiy, metodologik- sinergetik jihatlari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

intuitiv bilish va sinergetik tafakkur uslubi mutanosibligining shaxsiy qarorlar qabul qilishdagi o‘rnini ochib berish;

G‘arb va Sharq mutafakkirlarining intuitiv bilish metodiga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish, umumiy jihatlari aniqlash va ulardan zamonaviy ilmiy bilimlarni yaratishda foydalanishning rolini asoslash;

ilmiy ratsionallikning intuitiv bilish metodi sifatida irratsional darajadagi metod bilan mutanosibligini asoslash;

hozirgi davr tabiiy–ilmiy, ijtimoiy-gumanitar fanlarni rivojlantirishda intuitsiyaning ahamiyatini ochib berish

intuitiv bilimni rivojlantirishda defolt tizimning rolini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning ob’ektini tabiiy va ijtimoiy jarayonlar transformatsiyasida intuitiv-sinergetik metodologiya tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini intuitiv bilishning falsafiy sinergetik jihatlari tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz, induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, bifurkatsiya, usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

⁴⁴ Азизиқулов А.А. Илмий ижодиётида рационаллик ва нораціоналлик: концептуал таҳлил ёндашувлар: Дис. ... фалс. фан. ном. – Самарқанд, 2007. – 146 б.

⁴⁵ Қаҳҳорова Ш. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. – Тошкент: Tafakkur, 2009. – 448 б.

⁴⁶ Қобулнийёзова Г. Ф.Нишсе ва А.Бергсоннинг ҳаёт фалсафасида инсон муаммоси. – Тошкент: Muharir. 2020. – 252 б.

⁴⁷ Султонова Г. Постноклассик илмий тафаккур тарзи ва инновация. Монография.–Германия: “Globe edit”, 2019.– 160 б. Эргашева М.Х. Таълим таракқиёти: синергетик таҳлил. Монография. - Самарқанд: СамДЧТИ, 2022. –190 б.

intuitsiya ta'lim, fan, san'at sohasida kognitiv va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi sinergetik jarayon sifatida ilmiy progressga xizmat qilishi ilmiy asoslandi;

intuitiv bilish jarayoni Sharq, G'arb falsafiy taraqqiyotida tafakkur uslubi sifatida olamni bilish imkoniyatlarining sinergetik, onto-gnoseologik xususiyatlari, ya'ni tartibsizlikdan tartibga tomon o'tishi va aksincha holatda namoyon bo'lishining ilmiy-metodologik ahamiyati yoritildi;

intuitsiya miyaning ichki faoliyati, neyronlarning assotsiativ bog'lanishlari, frontal, temporal, oksipital loblarning uyg'unlashishi jarayonida ro'y beruvchi noyob hodisa sifatida shaxslarning faoliyatida tasodifiy vaziyatlarda qarorlar qabul qilish, ijrosini ta'minlash metodologiyasi sifatida namoyon bo'lishi dalillandi;

intuitsiyaning ratsional va irratsional xossalar dialektikasi insonning ongsiz faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo'lishi, ijodiy tafakkurning imkoniyati sifatida ijtimoiy ong dinamikasiga konstruktiv va destruktiv ta'sir etishi isbotlandi;

intuitsiyaning ijtimoiy bashorat dialektikasi tadrijiy jarayonlarni rejalashtirish, jamiyat taraqqiyotidagi beqarorlikdan barqarorlikka o'tish usuli sifatidagi dialektik-sinergetik mohiyati ilmiy asoslandi.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

intuitiv bilish metodining dunyoning ilmiy manzarasini tasavvur qilish, uning yangilanishiga asos bo'luvchi metodologik yondashuvlarini yaratish va ijtimoiy taraqqiyot mexanizmi sifatida foydalanishning ahamiyati ochib berilgan;

Sharq va G'arb mutafakkirlarining ta'limotlarida intuitsiyaning dialektik-sinergetik metodologiya bilan bog'liq jihatlariga oid g'oyalari qiyosiy tahlil etilgan hamda uning metodologiya sifatida dunyoning ilmiy, diniy va ezoterik manzarasini yaratishdagi o'rni asoslangan;

intuitsiyaning ratsional va irratsional dunyoqarash, kreativ tafakkur uslubining mahsuli, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liqligi asoslangan, yangi g'oyalarni yaratishda foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro konferensiyalar materiallari, ilmiy to'plamlar, OAK tomonidan ro'yxatga olingan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga qo'llanilganligi, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati intuitsiya ilmiy bilishning metodi, yangi bilimlarni yaratishning metodologik tamoyili, kreativ tafakkur uslubi sifatida amal qilishiga oid ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati intuitsiyaning ilmiy bilish metodi va sinergetik yondashuv sifatidagi g'oyalardan "Falsafa", "Sinergetika", "Germenevtika", "Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi", "Psixologiya" fanlarini o'qitishda, respublika

ma'naviyat va ma'rifat markazining viloyat va tuman bo'limlarida kelajakni intuitiv prognozlashtirishga oid davra suhbatlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Intuitiv bilishning falsafiy sinergetik jihatlarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar:

intuitsiya ta'lim, fan, san'at sohasida kognitiv va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi sinergetik jarayon sifatida ilmiy progressga xizmat qilishiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy markazi tomonidan (buyurtma asosida) nashr etilgan "O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari falsafiy tarixiy merosi ensiklopediyasi"ni boyitishda foydalanilgan. (Ma'lumotnoma №02/245. 2024.11.06) Natijada, ilmiy tadqiqotda ilgari surilgan yangiliklarning joriy qilinishi Sharq va G'arb mutafakkirlarining ta'limotlarida intuitsiyaning dialektika va sinergetika bilan bog'liq jihatlariga oid g'oyalar qiyosiy tahlil etilishiga xizmat qilgan.

intuitiv bilish jarayoni Sharq, G'arb falsafiy taraqqiyotida tafakkur uslubi sifatida olamni bilish imkoniyatlarining sinergetik, onto-gnoseologik xususiyatlari, ya'ni tartibsizlikdan tartibga tomon o'tishi va aksincha holatda namoyon bo'lishining ilmiy-metodologik ahamiyatiga oid xulosalardan O'zbekiston teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" kanali "Taqdimot" ko'rsatuvining 2024 yil 21 fevral kuni soat 16:00 da efirga uzatilgan navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Ma'lumotnoma №02-31-667). Natijada, eshittirish va ko'rsatuvni ssenariysini mazmunan boyitishga hamda keng jamoatchilikka falsafa tarixida intuitiv bilimlarning rivojlanish jarayoni, ilmiy bilish jarayonining tizimli yondoshuvi va bunda tartib va xaos holatlarining sinergetik ahamiyatini yoritishga xizmat qilgan.

intuitsiya miyaning ichki faoliyati, neyronlarning assotsiativ bog'lanishlari, frontal, temporal, oksipital loblarning uyg'unlashishi jarayonida ro'y beruvchi noyob hodisa sifatida shaxslarning faoliyatida tasodifiy vaziyatlarda qarorlar qabul qilish, ijrosini ta'minlash metodologiyasi sifatida namoyon bo'lishiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining turli targ'ibot ishlari foydalanilgan (Ma'lumotnoma 3-16-21-2779). Natijada xizmat qilgan. Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy amaliy tadqiqotlar orqali yosh tadqiqotchilar ilmiy faoliyatida ratsional va irratsional tafakkur, intuitiv sinergetik tafakkurning yangi imkoniyatlarini topishga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining ilmiy faoliyat ishlari uchun samarali xizmat qilgan.

intuitsiyaning ratsional va irratsional xossalari dialektikasi insonning ongsiz faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo'lishi, ijodiy tafakkurning imkoniyati sifatida ijtimoiy ong dinamikasiga konstruktiv va destruktiv ta'sir etishiga oid xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" 13-bandi "Yangi ma'naviy makonni shakllantirishning dolzarb masalalari, bu borada ma'rifatparvar, ziyolilar, davlat va jamoat faollarini birlashtirish

hamda “Yangi O‘zbekiston orzusi”ni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan. (Ma‘lumotnoma №228) Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar Yangi O‘zbekistonda “Ma‘rifatli jamiyat” barpo etishda davlat fuqarolik xizmatchilari kasbiy ma‘naviyatini rivojlantirishga xizmat qilgan.

intuitsiyaning ijtimoiy bashorat dialektikasi tadrijiy jarayonlarni rejalashtirish, jamiyat taraqqiyotidagi beqarorlikdan barqarorlikka o‘tish usuli sifatidagi dialektik-sinergetik mohiyatiga oid xulosalardan O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi ijtimoiy-siyosiy targ‘ibot ishlarida foydalanilgan. (Ma‘lumotnoma №01-05/243). Natijada, mamlakatimizda ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy istiqbolni yaratish yo‘lidagi partiyaning kelgusi o‘n yillikdagi platformasi hamda saylovoldi dasturlarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 6 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalaridagi ma‘ruzalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 55 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola (13 ta respublika, 2 ta xalqaro ilmiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, 12 paragraf, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 226 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan hamda amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlarning soni, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Intuitsiyani o'rganishning falsafiy qiyosiy tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida «intuitiv bilish» va «tafakkur» tushunchalarining falsafiy mohiyati, G'arb va Sharq mutafakkirlarining intuitiv bilishga oid qarashlaridagi qiyosiy tahlili, intuitiv bilishda sinergetik tahlili falsafiy jihati ochib berilgan.

Tadqiqot ishining birinchi bobining “**Intuitsiyaning metod va metodologik yondashuv sifatidagi mohiyati va ahamiyati**” deb nomlangan 1-bob 1-paragrafida muallif ilmiy bilish jarayonida intuitsiyaning namoyon bo'lishini Qadimgi davr yunon falsafasi vakillarining bilish jarayoniga doir qarashlarida batafsil o'rgangan. Jumladan, Miletlik faylasuf Falesning matematik g'oyalari asosida astronomik kashfiyotlari⁴⁸ o'rganilgan. Tafakkur insoniylik va ilohiylikning tutashgan qismi deganda, Empedokl fikrlarini muallif bilish jarayoni hissiy bilish, aqliy bilish va intuitiv bilish jarayonidan iborat tafakkurning jonli mushohada va aqliy mushohadani qamrab olishi kabi mulohazalari bilan isbotlaydi. Bu jarayon intuitiv tafakkurni shakllantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etishi mazkur paragrafda o'z ifodasini topgan. Empidoklning tana va ruh haqidagi qarashlaridagi intuitiv bilim elementlari dissertant tomonidan batafsil bayon etilgan. Empidokl inson bir vaqtning o'zida moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishini bu holatda insonda tana va ruh uyg'unligini intuitiv bilish asosida isbotlashga xarakat qilganligi borasidagi fikrlar o'rin olgan.

Pifagorning sonlar haqidagi ta'limotida intuitiv bilish⁴⁹ bevosita matematik-intuitiv tahlil asosda izoh berilgan. Pifagor nazarida borliq sonlardan iboratligi, borliqdagi jamiki narsa va hodisalar o'zining muayyan shakliga, xususiyatiga, belgi alomatlariga, miqdoriga egaligini muallif quyidagicha izohlaydi. Muayyan ma'noda miqdor tufayli narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, chiziqli va nochiziqli munosabatlarni matematik-intuitiv sinergetik tahlil qilish metodologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. “...narsa va hodisalarning tub mohiyatini anglab yetish, nafaqat ulardagi sifat va miqdor xususiyatlarini, balki, yuqorida keltirilganidek, ular o'rtasidagi o'zaro dialektik va sinergetik munosabatni ham anglab yetish imkoniyatini yaratadi. Tabiat va jamiyatda

⁴⁸ Петрова Г.И. Философия. Социология. Политология. – М.: 2008. – С. 29-33.

⁴⁹ Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшие школа, 1999. – С.13.

jamiki narsa va hodisalar bir-birining sababi tufayli mavjud ekan, bu jarayon ular o‘rtasidagi dialektik va sinergetik munosabatda o‘z ifodasini topadi.”⁵⁰

Suqrotning intuitsiyani ruhiy holatda aks ettirganligi⁵¹ dissertant quyidagicha bayon etgan. «O‘z-o‘zini anglash» haqida fikr yuritgan yunon faylasufi Suqrot birinchi bo‘lib, o‘z falsafasi markaziga inson qalbini qo‘ygan. Ezgulik to‘g‘risidagi diologlarida yaxshilikni intuitiv tushunish mumkinligini isbotlab berganligi, ya‘ni ezgulik, Suqrot fikricha, axloqiy intuitsiya « inson ruhining eng yuksak pog‘onasidir, uni tafakkur, tushunchalar orqali ochib, tushuntirib bo‘lmaydi, uni faqat ongli ravishda his etish mumkin. Har bir inson qalb ovozigaga ega va inson unga quloq tutishi lozim »⁵² - deydi. Qalb ovozinini keyinchalik Suqrot daholik deb atagan. Muallif fikricha, ko‘p hollarda insonni uning ruhiy holati boshqaradi. “Intuitsiyaning axloqiy shakli insonning his tuyg‘usi emotsional intuitsiya bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Emotsional intuitsiya biror narsaning qadr qimmatini hissiyot orqali anglab yetish jarayonida yuzaga keladi. Inson aksariyat hollarda o‘zining ichki ruhiy kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarni his etadi. Muammoli vaziyatlarda aytgan so‘zi, qilgan noo‘rin hatti harakati uni ruhan azobga soladi. Mazkur holatda insonda qandaydir yashirin emotsiyalar yuzaga keladi va tabiiy holda unda aksiologik tuyg‘ular paydo bo‘la boshlaydi.”⁵³

Dissertant Aflotunning g‘oyalar dunyosi ta‘limotidagi ong osti masalalarini⁵⁴ tahlil etgan. Aflotun uchun intuitsiya bu to‘satdan o‘ta sezgir tushuncha sifatida gavdalanadi, ammo bu jarayon muntazamlilik xususiyatiga ega. Intuitsiya bu aqlga ishlov berish, intellektual tafakkurni shakllantirish sifatida mutlaq yaxshilikni, g‘oyalar dunyosining mohiyatini bilishga qaratilgan bilim. Aflotun intuitiv bilish qobiliyatida bevosita axloqiy hamda ruhiy psixologik omillar ham mavjudligini ongsizlik tushunchasi bilan izohlaydi: ko‘plab shoirlar o‘zlarining eng yaxshi asarlarini ongning xiralashgan paytida, ruhiy tushkunlik holatida yaratadilar va shuning uchun o‘zlarining yaratgan ijod mahsulining qay tarzda sodir bo‘lganligini to‘liq izohlab bera olmaydilar, kabi mulohazalar muallif tomonidan tahlil etilgan.

Dissertatsiya 1-bobining 2-paragrafi “**Sharq falsafasida intuitiv bilimning talqini va ijtimoiy hayotdagi o‘rni**” deb nomlangan. Bunda Sharq falsafasi vakillari, xususan Abu Nasr Forobiy tomonidan ijtimoiy – ruhiy (psixologik) hodisa hisoblangan intuitsiyani o‘zining «Fozil shahar odamlari» nomli risolasida fozil shahar boshqaruvchisida shart bo‘lgan o‘nta fazilatning biri sifatida intuitiv qobiliyatni asos qilib kiritdi. Bu yerda intuitsiya jamiyatni boshqarishda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy va tabiiy xavf xatarlarni zehn idroki bilan oldindan ko‘ra bilishi va barqaror

⁵⁰ Надирова З. Интуитив – синергетик тафаккур.– Ташкент: СП «PUBLISHING HIGH FUTURE» 2024. –Б.12.

⁵¹ История философии. – М.: 1997

⁵² История философии. – М.: 1997

⁵³ Надирова З. Интуитив – синергетик тафаккур.– Ташкент: СП «PUBLISHING HIGH FUTURE» 2024. –Б.14.

⁵⁴ Канке В.А. Философия. Исторический и систематический курс. – М.: Логос, 1999. – С. 34.

jamiyatni rivojlantirish g'oyalarini intuitiv anglashi zarurligini bayon qilgan. Bunda faol aql idrokka ega bo'lgan boshqaruvchining intuitiv bilish qobiliyati jamiyatning ulkan muammolariga, ilmiy va ijtimoiy jihatlarga asoslangan holda bartaraf etishi mumkinligi borasidagi fikr va mulohazalari muallif tomonidan bayon etilgan. Forobiy fikricha, «inson faoliyatiga taqqoslash, siyosat, tadbirlilik va shular asosida hodisalarni oldindan ko'ra bila olish xosdir». Tadqiqotchi fikricha, intuitiv bilish jarayonini faylasuf mantiq qoidalarga bog'lab asoslashi uning intuitsiyani ratsional tushunganligidan dalolatdir. Intuitsiyaning mohiyatini tushunishda Forobiy: “narsa va hodisalarning inson sezgi va aqlida aks etishi, ifodalanishidan iboratdir, insondan tashqarida mavjud bo'lgan real jismlar insonga ta'sir etib, unda o'z tasvirlarini yaratadi va shu jarayon tufayli inson o'zini o'rab olgan substansiya va aksidensiyalar to'g'risida bilimga ega bo'lib boradi. Dastlabki ma'lumot odamga tashqaridan — sezgilar orqali keladi, keyin xotira va tasavvur ishga tushadi. Bilishning yuqori bosqichi sifatida, Forobiy fikricha, aql mantiqiy fikrlashdir. Sezgilar narsalarning sifatlari va xususiyatlarini aks ettirsa, aql ularning mohiyatiga kirib boradi. Zero, aql rang ortida yashiringan narsani bilishga qodir.

Abu Rayhon Beruniyning intuitiv fikrlash borasida yozgan asarlarida nochiziqli, sinergetik yondashuv elementlarini kuzatish mumkin. Ma'lumki, Beruniy asosan ratsionalist olim sifatida har bir erishilgan bilimni aql tarozisida qayta-qayta o'lchab, uning adekvatligiga, haqiqatligiga to'liq ishonganidan keyingina qabul qilgan. Beruniy tafakkurda chiziqli yondashuv bilan cheklanib qolmasdan nochiziqli yondashuv elementlariga ham tayangan. Shuningdek, Beruniy falsafasida metafizika va dialektika qonuniyatlari bilan bir qatorda “intuitsiya bu xaosdagi tartibdir, ya'ni tartibsiz fikrlarni tartiblovchi tizimdir, ayni paytda ilmiy muammo haqida mavjud tartibli ma'lumotlarni tarqoqligini asoslovchi, yetarli emasligini anglatuvchi tizim sifatida baholangan. Muallif fikricha, intuitsiya murakkab voqelikni soddalashtiruvchi mexanizm, ayni paytda esa sodda mavjudlikda murakkablikni anglashda yordam beruvchi ichki hissiyot. Intuitiv tafakkur zaruriyatdagi tasodifiy bilimlardir va yana tasodif vaziyatlardagi zaruriy mushohadadir. Intuitsiyada hozir orqali kelajakni ko'rish mumkin, ya'ni koevoluyusion taraqqiyotni ko'ra olishi mumkinligi kabi sinergetik tamoyillarning elementlarini uchratish mumkin.

Abu Ali Ibn Sinoning intuitsiya borasidagi irratsional qarashlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Abu Ali Ibn Sino bilish jarayonidan chiqmagan holda tajribaviy bilimlar yordamida tadqiqotchi tafakkuriga nurlanish xususiyati xosligini gapirgan. Bunday nurlanish faqatgina mutlaq xotirjamlikdagina namoyon bo'ladi. Ibn Sino talqinida, «Insonning ruhi mukammal xususiyatga ega va u nurdan iborat, ana shu nur inson bilish jarayonida unga ma'lum bo'lmagan sirlarni ochadi. Muallif fikricha, yorug'lik qorong'ulikdagi mavjudlikni aks ettirgani kabi, inson qalbidagi nur, shu'la ko'rinishida inson ongidagi muammoning yechimini tusatdan yoritib yuborishi mumkin.

Abu Homid G‘azzoliy oqilona bilishga alohida ahamiyat qaratadi. Uning «Kimyoi soadat» asarida aql g‘uyoki shahar vaziriga qiyoslanadi, qalb esa shahar podshohiga: «Va dil – bu shaharning podshohi. Va aql – bu shahar podshohining vaziri»- deydi u. G‘azzoliy aqlni qalbgga nisbatan yuqori baholaydi: «Eng mu’tadil, farovon davlatda podshoh vazirsiz faoliyat yurita olmagan singari, qalban va aqlan adolatli qarorlar qabul qilish maqsadga muvofiqdir» - deb ta’kidlagan. Muallif fikricha, bu bilan Imom G‘azzoliy intuitiv bilish jarayonini ratsional jihatdan aqliy mushohadaga bog‘lab hissiyotdan ustun qo‘yishi mantiqiy ma’noda to‘g‘ridir. Intuitsiya, intuitiv tafakkur jamiyat hayot sohalarining boshqaruvida va ularning izchil tartibga solinishida, ijtimoiy bashoratda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bilish jarayonidir.

Sufizm falsafasida⁵⁵ intuitsiyaga ilohiy tasnif berilishini qiyosiy tahlil etgan. Sufiylar nazarida ma’rifat intuitsiya orqali fikrdan oldin keladigan va shubhaga zarracha asos qoldirmaydigan ilmdir. Shu bois, ma’rifat ilmi botiniy ilm deb yuritilgan. Chunki tasavvuf ahli dunyoviy va diniy ilmlarni birga qo‘shib, «zohiriy ilmlar» deb ataganlar, garchi zohiriy bilimlar Haq taolo asrorini anglashga yaroqsiz bo‘lsada, lekin dunyoni bilishning birinchi bosqichi, ya’ni Allohni bilish dunyoni bilishdan boshlanishi kerak, deyiladi, chunki dunyo kasrat olami, Allohning ijodi, uning sifatlari, qudratini namoyon etib turadigan ko‘zgu sifatida olib qaralgan.

Dissertatsiya 1-bobining 3-paragrafi “**G‘arb falsafasida intuitiv bilish haqidagi qarashlar tasnifi**” deb nomlanib, unda G‘arb faylasuf olimlaridan F.Bekoning intuitsiyani tafakkur jarayonining asosiy kaliti haqidagi g‘oyalari muallif tomonidan batafsil o‘rganilgan. Bekon bilish jarayonida tajribaviy metodga ko‘proq e’tibor qaratdi. Bekon fikricha bilish, aynan intuitsiya – tafakkur jarayonining muhim kaliti bo‘lib, u barcha fanlar uchun asosiy metod hisoblanadi. Fan vazifasining yangicha metodini F.Bekoning «Yangi organon» asarida kuzatish mumkin. Faylasuf tajribaviy tabiatni o‘rganishning yangi uslubiga asos soldi. Bu uslub yordamida fan olamida innovatsion kashfiyotlarni topish mumkin bo‘ladi. Tadqiqotchi olimning vizual idroki yordamida qabul qilingan ma’lumotni F.Bekon notekis ko‘zguga qiyoslaydi. Shu bois oqilona bilish sezgilar yordamida olingan ma’lumotni haqiqiy yoki soxta bilimga ajratuvchi mezon deb baholaydi.

Fransuz faylasufi Rene Dekart intuitsiyani ilmiy bilish jarayonida oliy shakldagi qobiliyat deb hisoblaydi. Dekart ilk falsafiy ta’limotning ibtidosi bu intellektual intuitsiya g‘oyasi deb baholaydi. O‘zbek olimlardan J.Tulenov yozishicha: «R.Dekart intuitsiyaning o‘zigina ishonchli bilim bermaydi, faqat intellektual intuitsiyagina haqiqiy bilim beradi, deb hisoblaydi»⁵⁶. U “ratsionalist sifatida intuitsiyani intellektlashtirishga urinadi va uni inson tafakkuridagi sodda aniq va ravshan tushunchalar deb baholaydi”. Intuitsiya borasida R.Dekart yana quyidagi

⁵⁵ Фалсафа қисқача изоҳли луғат/ Муаллифлар: М.Н.Абдуллаева, М.Абдурашидов, У.Абилов. – Т.: Шарқ, 2004. – Б.165.

⁵⁶ Туленов Ж. Фалсафа. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 238.

fikrlarni yozadi: «..bu teran va zehnli aqlning mustahkam ifodasidir, mantiq va intuitsiya uzviy aloqadorlikka ega». Dekart uchun intuitsiya mantiqiy tafakkur bilan uzviy aloqadorlikka ega, shu bois intuitsiya dastlab aniq bir ongli maqsadni talab etadi. Dekart fikricha, intuitsiya - bu aniq va diqqatli ongning mustahkam tushunchasi bo‘lib, u faqat ongning tabiiy nuri tomonidan yaratilgan va soddaligi tufayli deduksiyaning o‘zidan ko‘ra ishonchliroqdir.

Benedikt Spinozada intuitsiya va substansiya haqidagi qarashlari ochib berilgan. Spinoza oddiy va murakkab ta’sirlarning insonga qay darajada ta’sir etishi va aks ta’sir natijasida tadqiqotchi olim o‘z dunyoqarashidan, o‘z bilimidan yuqori darajaga chiqishi mumkinligini ta’kidlagan. Spinoza uchun intuitsiya bu fan olamida universal muhimlikni anglash, his etishdir. Shuningdek, I.Kantda intuitsiyada tajribaning ahamiyati, «Odamlar mushohadaning shunday bir aprior (tajribagacha bo‘lgan) shakliga egaki, uning yordamida sezgilar orqali olingan ma’lumotlar sintez qilinadi va ular tasavvur bo‘yicha qat’iy tartibga solinadi»⁵⁷. Muallif fikricha, aynan I.Kant falsafasiga ko‘ra inson bilish jarayonining boshlang‘ich negizini sezgilarga bog‘lab tushintirishi intuitiv bilish jarayonini yuqoriga qo‘yganligidan dalolatdir.

Intuitsiyani harakat, faoliyat bilan bog‘lagan nemis faylasufi Iogann Gotlib Fixte yozishicha, ilmiy bilish jarayonida intuitsiya bu «ichki harakat mahsuli, u nihoyat irratsional bilishdir.» Fixte irratsionallikni qarama qarshiliklarga barham beruvchi tafakkur deb hisoblaydi. I.Fixte bilish jarayonida izlanuvchi va u o‘rganayotgan predmetni sub’ekt va ob’ekt tarzida tushinadi, “bular o‘rtasida dastlab ziddiyat mavjud bo‘lsada, bu qarama qarshilik keyinchalik barham topadi va izlanuvchida intellektual intuitsiya tafakkurni yuzaga keltiradi.»⁵⁸ Shu bilan birga Fixte «intellektual intuitsiya» g‘oyasini ijod jarayonining poydevori deb bilgan, u bilish jarayonida irratsional tafakkur mavqeini ratsionallikdan yuqori baholaydi. Biroq, muallif fikricha, intellektual intuitsiya negizida ratsionallik va irratsionallikning birligi yotadi, xuddiki, Fixte nazarda tutgan ob’ekt va sub’ekt birligi.

I.Gyoteda intuitsiyani ichki faoliyat, harakat deb baholashidagi irratsional xususiyat, A.Shopengauerda intuitsiya bevosita fahm farosat, ya’ni botiniy sezgi tushunchalari bilan uyg‘unligi intuitiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishning muhim omili ekanligi ochib berilgan.

Bob yakunida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Intuitiv bilish bu sinergetik tizimdir. Intuitiv bilish ochiq, muvozanatsiz, ichki va tashqi tebranishlarga ega, nochiziq, xaotik, o‘z-o‘zini tashkillashtiradigan, dissipativ sistemasi sifatida sinergetik metodologiya o‘rganish ob’ekti bo‘la oladi;
2. Intuitiv bilish sistemasida sinergetik qonuniyatlar (ochiqlik, nochiziqlik, muvozanatsizlik, tartib va tartibsizlik, o‘z-o‘zini tashkillashtirish) amal qiladi.

⁵⁷ Радугин. А.А. Философия: курс лекции – 2 е изд., перераб. И дополн. – М.: центр 1999. – С.112.

⁵⁸ Радугин. А.А. Философия: курс лекции – 2 е изд., перераб. И дополн. – М.: Центр, 1999. – С.118.

Bugungi zamonaviy intuitiv bilish sinergetik tizim sifatida talqin etilishi, sinergetik metodlar orqali tahlil etilishi intuitiv bilishdagi ko‘plab muammolar yechimida asosiy o‘rin tutadi;

3. Intuitiv bilishning sinergetik qonuniyatlari intuitiv bilish taraqqiyoti uchun muhim hisoblangan bir xillikdan chiqishga, tanqidiy, mantiqiy, ko‘p tomonlama tafakkur yuritishga asosiy omil bo‘la oladi. Zamonaviy intuitiv bilishga tizimli yondashuv bugungi kunda barcha intuitiv bilish bosqichlarini integratsion faoliyatini amalga oshirishda muhim sanaladi. Intuitiv bilish jarayonidagi asosiy muammolarni aniqlab, ularning boshlang‘ich nuqtasini topadi va yechimlarini taklif etadi. Tizimli yondashuv intuitiv bilish jarayonida har bir innovatsiyani qo‘llashda tanqidiy va mantiqiy tafakkur asosida yondashib, milliy intuitiv bilish tizimiga moslashtirishda nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi.
4. Sinergetik intuitiv bilish tizimini joriy etilishi intuitiv bilishdagi ko‘plab muammolarni bir necha yechimlarini taklif etishda samarali hisoblanadi. Sinergetik intuitiv bilish tizimini shakllanishi o‘quv jarayonini sifatini nazorat qilishda va samaradorligini oshirishda yangicha usullar yordamida yondashuvga xizmat qiladi. Sinergetik intuitiv bilish tizimi yangicha dunyoqarashni shakllanishiga, mantiqiy, tanqidiy, sinergetik tafakkur tarzini qaror topishiga asos bo‘ladi. Sinergetik intuitiv bilish tizimi orqali o‘z-o‘zini tashkillashtira oladigan, o‘z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, o‘z mehnatiga munosib baho bera oladigan, o‘ziga nisbatan talabchan zamonaviy kadrlar shakllantiriladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Intuitsiya olamni bilishning innovatsion asosi**» deb nomlangan. Mazkur bobda intuitsiya ilmiy bilish metodi sifatidagi rivojlanish bosqichlari va shakllari hamda intuitsiyaning bilish darajalari bilan bog‘liq jihatlari bevosita inson miya tizimlari va faoliyati bilan bog‘liq jihatlari ochib berilgan.

«**Intuitsiya ilmiy bilish metodi sifatidagi rivojlanish bosqichlari va shakllari**» deb nomlangan 2-bobning 1-paragrafida intuitiyaning mohiyati, kelib chiqish sabablari, shakllanish va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Ushbu paragrafda G‘arbiy Yevropa Uyg‘onish davrida tabiatshunoslik fanlari singari ilmiy bilish va ilmiy ijod jarayonlari keng o‘rganila boshlanganligi, Nikolay Kopernikning geliotsentrik nazariyasining yaratilishi, I.Nyutonning butun olam tortishish qonunining kashf etilishi, integral hisoblash metodining ishlab chiqilishi, Rene Dekartning ilmiy bilish jarayoni uchun deduktiv metodni ishlab chiqishi, Immanuel Kant ilmiy bilishda umumiylik va zaruriylik xususiyatini asoslab berganligi kabu mulohazalarda intuitsiyaning o‘rni ochib berilgan.

Muallif empirik va nazariy bilish o‘zaro bir–biridan hissiylik va ratsionallikning o‘zaro bog‘liqligida, qobiliyat, sezgi, idrok, tasavvur, zehn, intuitsiya tushunchalarining uzviyligini bayon etgan. Ayni paytda ratsionallik fanda tadqiqotchining aql yurtirishi

vositasida bilim hosil qilish, mavjud bilimlar – tushunchalar asosida yangi bilimlar, xulosalarni shakllantirish qobiliyatida namoyon bo‘lishi, intuitsiya hissiy bilish, ratsional va irratsional tafakkur uyg‘unligida namoyon bo‘lishi va uchlikning birlikda aks etishi tafakkur yaxlitligida o‘z ifodasini topishi borasidagi fikrlar tahlil etilgan.

Miya faoliyatidagi neyron va gilyal hujayralar haqida batafsil to‘xtalgan, ya’ni miyadagi har bir neyron boshqa neyronlarga ma’lumotni elektr va boshqa kimyoviy singallar orqali uzatilishi⁵⁹, ma’lumot almashishi orqali insonning fikr yuritishi, his qilishi, eslab qolishi, miyada ba’zan tasodifiy (kutilmagan) yangi fikrlarning chiroq kabi yalt etishi natijasida intuitsiyaning sodir bo‘lishi tahlil etilgan.

Tadqiqotda «signal», «insayt», «miya loblari», «chiroq» tushunchalarining intuitsiyaga o‘zaro aloqadorligi mohiyati yoritilgan. Miyaning frontal, pariental, oksipital, timporal loblar⁶⁰ning funksiyalari va ularning intuitiv tafakkur jarayonidagi ishtiroki, ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, muallif intuitsiya so‘zining izohi, mohiyati, inson ongi va tafakkuri, ong osti holatida kelib chiqish sabablari, mantiqiy fikrlash uzviyligi va shu jumladan, ilm fan rivoji uchun zaruriyatini ochib bergan.

Dessertatsiyaning 2-bobi 2-paragrafi **“Intuitsiya va sinergetika metodologiyasining o‘zaro aloqasi”** deb nomlangan. Unda intuitsiyaga ilmiy – falsafiy yondoshuv va izohlar aks etgan. Xususan, «intuitsiya ixtirochilik va kashfiyotchilikni taqozo qiluvchi yuksak darajadagi ijodiy qobiliyatda sodir bo‘ladigan bilish jarayoni». Ch.Shagas yozishicha «Intuitsiya yordamida ko‘plab yangi kashfiyotlar paydo bo‘ldi va shu tariqa jahon ilmiy bilimlarining o‘sishi ta’minlandi», ilmiy bilimlarda intuitsiyaning o‘rni beqiyos, intuitsiya ilm-fan rivoji uchun zarur sinergetik hodisa hisoblanadi. Intuitsiya yangi ilmiy bilimlarning paydo bo‘lishini ta’minlaydigan maxsus ijodiy qobiliyat sifatida rivojlanadi. Muallif fikricha, intuitsiya bu ong, ilmiy bilish, ijod, tajriba yordamida erishilgan bilim, intuitsiya bu tom ma’noda fahm farosatdir.

Intuitsiya bu tayyor, yangi bilimning ko‘tilmaganda paydo bo‘lishi emas, balki murakkab aqliy fikrlash jarayonlarida pishib yetilgan yangi bir bilimning, ilmiy g‘oya va kashfiyotning hosil bo‘lishidir. Intuitsiya bu teran va zehnli aqlning mustahkam ifodasi sifatida ta’kidlash mumkin. Xususan, I.Fixte nazarida intuitsiya bu ichki harakat va ayni paytda insonning olamga bevosita sodda munosabati hisoblanadi.

Dissertatsiyada Albert Einsteinning intuitsiyani qimmatli omil deb baholashi, Karl Yungda intuitsiyaning parametrlari kabi tushunchalar tahlil etilgan. Muallif, zamonaviy dunyoda intuitsiyaning fandagi amaliy rolini shakllantirish va rivojlantirish, barcha mutaxassis vakillarining kasb faoliyatida intuitsiyaning ahamiyati, shuningdek, ilmiy bilimlar sohasida intuitsiya ixtiro, kashf vositasi bo‘lib xizmat qilishi, murakkab vaziyatlarda mavjud muammoni tushina olish va tizimli fikrlashdagi zaruriyati ochib berilgan.

⁵⁹ John Medina. Brain rules. – Publisher: Pear Press, 2008. – P.32

⁶⁰ Конорский Ю.Интегративная деятельность мозга. – М.: Наука, 1970. – С.23

Muallif fikricha, sinergetik tizimlarda to'satdan sakrash bilan yangi sifatlar ko'zga tashlanadi. Intuitsiyada bunday jarayonni yaqqol ko'rish mumkin. O'ng yarim shar hissiy-xayoliy operatsiyalar uchun javobgardir. Bu yerda xotira epizodik, umumlashtirish vazifasiga ega. Inson miyasining funksional assimetriyasining kashf etilishi intuitsiya, ehtimol, ma'lumotni o'ng yarim shardan chapga va orqaga sakrashga o'xshash uzatish bilan bog'liq degan fikrga olib keladi. Ushbu tushunchaga ko'ra, intuitsiya-bu hissiy tasvirlardan tushunchalarga o'tish va aksincha amalga oshuvchi jarayondir. Shu bilan birga, hissiy tasvirlar va ulardan farq qiladigan tushunchalar o'rtasida oraliq qadamlar mavjud emas va hatto eng elementar tushunchalar ham hissiy tasvirlardan sifat jihatidan farq qiladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, eslatib o'tilgan o'tish uzluksiz xarakterga ega bo'lishi kerak. Bu intuitiv harakat jarayonining spontanlik, ajablanish, ongsizlik, intuitiv ravishda olingan natija haqiqatiga ishonch hissi va tushunish kabi xususiyatlarini anglatadi. Shuningdek, intuitsiyadagi har bir element funksional tuzilishga ega. Ya'ni intuitsiyaning har bir bog'liqlikdagi bo'g'ini o'zining muhim funksiyalari bilangina yagona, yaxlit, bir butun intuitiv sistemasini hosil qiladi. Mazkur sistemada har bir elementning muayyan vazifasi borki, birgina qism funksiyasining buzilishi yoki bajarilmay qolishi butun bir sistema faoliyatiga ta'sir etishi mumkin.

Dessertant fikricha, intuitsiyaning strukturasi tartiblangan yoki xaotik bo'lishi mumkin. Demak, ma'lum bir vaqtda intuitsiya strukturasi tartiblangan ko'rinish olsa, muayyan vaqt o'tishi bilan o'zgarishlar kirib kelishi natijasida xaotik ko'rinish oladi va bu xaotik jarayon intuitsiyaning tanazzuliga emas, balki ko'p hollarda uning rivojiga, taraqqiyotiga olib keladi. Shuning uchun intuitsiyadagi o'zgarishlardan, yangiliklardan, tasodif va kreativ g'oyalardan cho'chimaslik, ularni qabul qilish lozimki, hamma yangiliklar bo'lmasa ham ba'zilar, albatta, yangi bir rivojlanish yo'liga olib chiqishi isbotdan o'tgan xulosadir. Shu bilan birga, intuitiv bilish jarayoni sinergetik tizim sifatida matematikalashtiriladigan tizim sanaladi. Demak, intuitsiya mantiqiy fikrlashning o'zigina emas, balki ijodiy jarayon ekanligi, intuitsiyada hissiy, intellektual xususiyatlar mavjudligini asoslidir. Muallif fikricha, intuitsiya qaror qabul qilish muhim komponentlardan biri. Nevrolingvist Tatyana Chernigovskayaning insonning qaror qabul qilishida miyaning o'rni va signallar va aqlning hiylasi borasidagi fikri ahamiyatlidir⁶¹. Ya'ni inson miya ustida hech qanday kuchni amalga oshira olmaydi, qarorlarni uning o'zi qabul qiladi, lekin aqlning hislasi tufayli inson qarorlarni o'zi qabul qilgandek, tuyuladi unga⁶².

⁶¹ Черниговская Т.В. Лекция «Как научить мозг учиться». Из серии: Цикл лекций «Зачем мы мозгу» Аудио книга.

⁶² Черниговская Т.В. Лекция «Как научить мозг учиться». Из серии: Цикл лекций «Зачем мы мозгу» Аудио книга.

Dissertatsiyada T.Gobbs, A.Golbaxning sensualizm g'oyalarida intuitsiya, Dj.Lokkning intuitsiyaga ratsional yondoshuvilari ochib berilgan. Shuningdek, tasavvur, fantaziya kabi tushunchalarning intuitsiyadagi ahamiyati ochib berilgan.

Umuman olganda, ratsionallik va irratsionallik nazariya va amaliyot o'rtasidagi birlik, sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi, qarama-qarshiliklar birligi, ong va ruhiyatning birligi – bularning hammasi intuitsiyada o'zining yorqin ifodasini topadi. Intuitsiya olamga keng tasavvur, teran nigoh va o'zgacha bir nochiziqli yondoshuv orqali qarashga imkon berar ekan, demak, u fanlardagi o'zaro uyg'unlikni yaratishi, nochiziqli tafakkur asosida evolyusiyaning yangi qirralarini topish imkoniyatini beradi. shuningdek, intuitsiyada doimo noan'anaviylik, noodatiylik, mavhumlik, nochiziqlik kabi xususiyatlar namoyon bo'lib, u fundamental bilimlar asosida yangi murakkab muammolarga yechim topishda, yopiq, ya'ni mavjud tizimlashtirishirilgan bilimlardan tasavvur yordamida sakrab o'tish jarayonini hosil qiluvchi metodlardan biri sifatida o'rganiladi.

Bob yakunida quyidagi xulosalar chiqarilgan:

1. Intuitiv tafakkur sinergetik tizim hisoblanadi. Intuitiv bilish ochiq, muvozanatsiz, ichki va tashqi ta'sirlarga ega, nochiziq, xaotik, o'z-o'zini tashkillashtiradigan, dessorpativ sistema sifatida sinergetik metodologiya o'rganish ob'ekti bo'la oladi. Shu o'rinda intuitsiyaning o'zi ham sinergetik qonuniyatlarni namoyon etadi.
2. Bugungi zamonaviy falsafa va fanda intuitsiya sinergetik tizim sifatida talqin etilishi, sinergetik metodlar orqali tahlil etilishi ilmiy bilish jarayonidagi ko'plab muammolar yechimida asosiy o'rin tutadi. Intuitsiyaning sinergetik qonuniyatlari intuitiv bilish taraqqiyoti uchun muhim hisoblangan bir xillikdan chiqishga, tanqidiy, mantiqiy, ko'p tomonlama tafakkur yuritishga asosiy omil bo'la oladi.
3. Intuitsiyadagi barqarorlik fikriy turg'unlikka olib kelishi mumkin. Dogmatizm fikr rivojiga to'sqinlik qiladigan eng asosiy kuch sifatida ta'kidlash mumkin. Intuitsiya barqarorlikdan yiroq bo'lgan, doimo o'zgarib boradigan jarayon hisoblanadi. Shu sababli intuitsiya bir joyda to'xtab turmaydi. Dunyoda ilm fan rivojlangani sari intuitiv tafakkur ham rivojlanib boraveradi. Hattoki, yaqin o'tmishdagi intuitsiya borasidagi fikrlar bugungi kun ilmiy islohotlariga o'z o'rnini bo'shatib bermoqda.
4. Bilish nazariyasida intuitsiyani yaxlit tizimdir. Azaldan ilmiy bilish jarayoni sinergetik tizim bo'lib kelgan. Faqatgina bugungi kunga kelib, ayniqsa, insoniyat turli global muammolar qurshovida qolganda, turli tasodifiy jarayonlar kelib chiqqanda, ilm-fanning juda ko'p imkoniyatlari, zamonaviy shakllari hamda kelajakni oldindan ko'ra olish xususiyati yanada keng namoyon bo'lganda bu masala hozirgi sinergetik tizimlarda o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar sifatida qaralmoqda.

Dissertatsiyaning «**Intuitsiya va sinergetikaning ratsional va irratsional rivojlanishi**» deb nomlangan uchinchi bobida ratsional va irratsional tafakkur birligi, yaxlitligi va uyg'unligida intuitsiyaning sinergetik tahlili, uning murakkab chiziqli va nochiziqli rivojlanuvchi jarayon ekanligi ochib berilgan.

Dissertatsiya uchinchi bobi 1-paragrafi "**Intuitiv – sinergetik tafakkur uslubi murakkab tizim sifatida**" deb nomlangan. Mazkur paragrafda intuitiv – sinergetik tafakkur mohiyati ochib berilgan.

Intuitiv sinergetik tafakkur bu – ilmiy bilish jarayonidagi barcha bilish daraja va shakllarining (qismlarning) kelishilgan faoliyati asosida rivojlanadigan, proliferativ (bir tomirdan tarmoqlanib ketish, shaxobchalanish) xususiyatiga ega bo'lgan, ya'ni tafakkurda yangi shakllar paydo qila oladigan, o'z-o'zini tashkillashtira oladigan ochiq, muvozanatsiz, nochiziq tafakkur tarzidir.

Muallif fikricha, Intuitiv sinergetik tafakkur jarayonida asosiy e'tibor tadqiqotchi olim va ilmiy muammo yechimiga qaratilgan muljal turadi. Bunda tadqiqotchi olimning erkin fikrlashi, kreativ qobiliyati, muammo ustida doimiy ishlashi shakllantirib boriladi. Intuitiv bilish shunday bir murakkab sinergetik tizimki, unda yagona bir qat'iy usul yoki texnologiyani joriy etib bo'lmaydi.

Ratsionalizmning tayanch tushunchalaridan biri bu tafakkurdir. "XVII asr faylasuflari talqinida intuitsiyaning o'zigina ishonchli bilim bermaydi, faqat intellektual intuitsiyagina haqiqiy bilim beradi."⁶³ deb hisoblashgan. Xususan, R.Dekart fikricha "Intuitsiya bu teran va zehni aqlning mustahkam ifodasidir, mantiq va intuitsiya uzviy aloqadorlikka ega."⁶⁴ Dekart intuitivlik bilan ratsionallikni bir biri bilan bog'liq holda o'rganadi, intuitivlikni bilishning oliy shakli, degan xulosaga keladi. B.Spinoza o'zining bilishga oid qarashlarida ratsionalizmni e'tirof etadi. U aqlga asoslanuvchi, intellektual bilimni quyi turdagi bilimdan, ya'ni hissiy bilishdan yuqori qo'yadi. U haqiqatni bevosita mushohada qilish yoki aql intuitsiyasini intellektual bilimning eng yuqori turi, deb e'tirof etdi. Spinoza ravshanlik va yaqqollikni haqiqat mezoni deb e'lon qildi. G.V.Leybnis hissiy bilishni bilishning quyi bosqichi deb hisoblaydi va aqliy bilish uchun zamin hozirlaydi. Faqat aqliy bilishgina dunyoda mavjud bo'lgan umumiylik va zaruriylik haqida to'liq tasavvurni beradi, degan xulosaga keladi. I.Kant fikricha, inson "narsa o'zida" (mohiyat) ni bilishga qodir emas, u faqat narsa biz uchun, ya'ni hodisalarni bilishi mumkin. "Narsa o'zida" sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasida sezgilar majmuasi vujudga keladi. Bu majmua bizning aqlimiz quvvati bilan tartibga solinadi va bir butunga aylantiriladi. Biz tabiat qonunlari deb bilgan narsalar aslida aql tomonidan hodisalar dunyosiga kiritilgan munosabatlardir. Ya'ni Kantga ko'ra, aqlimiz tabiatga qonunlar kiritadi.

Dissertant fikricha, intuitiv sinergetik umumfalsafiy metodologiyada ratsionallik, irratsionallik, oqim holati, fikrlash jarayonidagi xaos holati, tartiblilik,

⁶³ Туленов Ж. Фалсафа – Тошкент.: Ўқитувчи 1997. Б 238

⁶⁴ И.Саифназаров. Г.Никитченко, Б.Қосимов. Илмий ижод методологияси, "Янги аср авлоди" – Т.: 2004 .Б 124

yaxlit tizim, nochiziqli tafakkur, g'oyalardagi dastlabki beqarorlik va so'nggi barqarorlik holatlar, fikrlashdagi turg'unlik va uning bifurkatsiya jarayonidagi buzilishlar, o'zgarishlar, mavjud fikrlar muvozanatlanganligi va muvozanatsiz holatga o'tishi, attraktor, fluktuatsiya, tasodif va zaruriyat, erkinlik va uyg'unlik kabi kategoriyalar shakllanadi. Bular intuitiv sinergetik bilishning eng umumiy aloqadorliklari va munosabatlarni ifodalaydi.

intuitiv bilish sifatini baholash, ijod jarayoni samaradorligini oshirishda intuitiv - sinergetik bilish tizimini joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinergetik intuitiv bilish tizimi quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- Intuitiv - sinergetik fikrlash;
- Intuitiv - sinergetik o'rganish;
- Intuitiv - sinergetik tushunish va tushuntirish;
- Intuitiv - sinergetik bilish konsepsiyalarini shakllantirish;
- Intuitiv - sinergetik tafakkur tarzini shakllantirish;
- muammoga intuitiv - sinergetik yechim topishga o'rgatish;
- Intuitiv - sinergetik bilishning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish;
- Intuitiv bilishda sinergetik qonuniyatlaridan amalda foydalanish.

Darhaqiqat, intuitiv - sinergetik fikrlash bu tafakkurning erkinligiga yo'l qo'yib berishdir. Intuitiv - sinergetik fikrlash fikrlanayotgan ob'ektga nisbatan chegara o'rnatmaslik, istalgancha mustaqil fikr yuritish va bir necha xulosalarga kelish demakdir. Shuningdek, ilmiy ijod, san'at, adabiyot vakillari sinergetik fikrlash tarzi orqali juda ulkan yutuqlarga erishishi mumkin. Intuitiv - sinergetik fikr yuritilganda muammoning ichiga kiriladi va xohlagancha tasavvur va erkin yondashuvga imkon beriladi.

Tadqiqotda intuitsiya insonning ijodiy layoqati yoki muayyan sohadagi samarali faoliyatiga nisbatan baholash usuli sifatida o'rganiladi. Intuitsiyaning hissiy, intellektual, emotsional va mistik turlari unda uzviy birlikni, yaxlit bilimni aks ettirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ingliz olimi M.Bunge olim intuitsiyasiga to'xtalib, uning: a) hissiy qabullash intuitsiyasi; b) tasavvur intuitsiyasi; v) fikrlash, mulohaza yuritish intuitsiyasi; g) sog'lom aqlga to'g'ri keladigan intuitsiya; d) intellektual intuitsiya kabi turlari haqida fikr yuritadi⁶⁵.

Ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lgan axloqiy ong intuitsiyaning axloqiy shaklidir. Intuitsiyaga axloqiy jihatdan yondashgan va o'z falsafasining markaziga inson qalbini qo'ygan Suqrot ezgulik to'g'risidagi dialoglarida «yaxshilik» intuitiv his etish mumkinligini ta'kidlaydi. Intuitsiyaning axloqiy shakli bo'lmish insonning histuyg'usi emotsional intuitsiya tarzida ifodalanadi. Tadqiqotchi mazkur fikrlar asosida intuitsiyaning aksiologik, dialektik va ijtimoiy turlari mavjudligini aniqlaydi. Dissertantning fikricha, inson aksariyat hollarda ichki ruhiy kechinmalari bilan bog'liq

⁶⁵ Бунге М. Интуиция и наука. – М.: Прогресс, 1967. – С. 111.

holatlarni his etadi. Muammoli vaziyatlarda aytgan soʻzi, qilgan nooʻrin xatti-harakati uni ruhiy azobga soladi. Mazkur holatda insonda yashirin his-tuygʻular yuzaga keladi va tabiiy holda ularga aksiologik baho bera boshlaydi. Bu holat intuitsiyaning aksiologik turida oʻz ifodasini topadi. Intuitiv bilish jarayonida subʻektning obʻektga aylanishi holati, ong va ongsizlik, ratsional tafakkur va irratsional tafakkur kabi tushunchalarning uzviy birligida intuitsiyaning dialektik turi namoyon boʻladi. Tafakkur ruhiy jarayondir. “Ong – inson miyasining faoliyati, mahsuli. Ong – insonning ruhiy holati.”⁶⁶ Tadqiqotchi intuitiv bilishning yuqori bosqichini roʻy berishi mumkin boʻlgan voqea va hodisalarni ilmiy oldindan koʻra olish, yaʼni bashorat, deb hisoblaydi. Bunda intuitsiyaning ijtimoiy turi oʻz ifodasini topgan. Intuitivizm asosan ikki shaklda namoyon boʻlgan: 1) intellektuallikka qarshi shaklda, yaʼni intuitsiya va intellektni qarama qarshi qoʻyish; 2) intuitsiya va intellektni birlashtirish (N.O.Losskiy, S.L.Frank, Ye.N.Trubeskoy, fransuz neotomistlari E.Jilson, Mariten, E.Gusserl, fenomenologiya maktabi vakillari M.Sheller, N.Gartman). A.Bergson taʼlimotiga koʻra intuitsiya va mantiqiy tafakkur bir biriga zid, chunki intuitsiya subʻekt bilan obʻektning qoʻshilishi natijasida ular oʻrtasidagi ziddiyatning yechilishi, bartaraf etilishidan kelib chiqadi. Ekzistensializm (Marsel) tarafdorlarining fikriga kura, intuitsiya hissiyot dunyosini tark etib, maʼnaviy sohaning (diniy, mistik) “tajriba”siga asoslanadi.⁶⁷

Muallif fikricha, sinergetik metodologiya qonunlarida intuitsiya quyidagicha shakllanishi mumkin: intuitsiya ochiq, muvozanatsiz bilishning yuqori shakli sifatida oʻz oʻzini tashkillashtirish, ijodkorning tasavvurlari olamida yangi tasvirlarni gavdalanirishi, nochiziqli tafakkur va unga xos boʻlgan xususiyat va sinergetika qonuniyatlarning muayyan yoʻnalishiga tayanadigan bilish jarayonidir. Shu bilan birga, intuitsiya muayyan bilimlar tahlilini amalga oshirish, bir-biridan nisbatan uzoq turgan tushuncha va fikrlarni uygʻunlashtirish, ularga xos boʻlgan umumiy yoki oʻxshash hislatlarni topa olish, (oʻshlab olish)anglash imkoniyatini beradigan mavhumlikdan aniqlik sari ildamlovchi hodisa sifatida namoyon boʻladi.

Intuitsiya sinergetikaning baʼzi qonunlari va kategoriyalari bilan oʻzaro kesishadi va oʻziga yoʻl topadi, masalan kaosda beqaror fikrlardan aniq fikrlarni terib olish, yoki nochiziqli tafakkur kategoriyasi bilan ishlaydi. Ayni paytda dialektikaning qonunlari bilan ham kesishadi, miqdor oʻzgarishlarining sifat oʻzgarishlariga oʻtish qonunida tadqiqotchi olimning muntazam muayyan sohaning ilmiy muammosiga doir maʼlumotlarni yigʻish, olingan maʼlumotlarni taqqoslash, farqlash va qayta ishlash jarayonida vaqt va harakatning miqdorga nisbatan oʻlchovi sifat oʻzgarishlariga olib keladi. Yaʼni muntazamlik har bir soha vakilida oʻlkan tajriba, bilim va koʻnikmani hosil qilgani singari intuitiv bilish darajalarini ham maʼlum holatda rivojlantirishga

⁶⁶ Тўраев Б.О. Борлик: моҳияти, шакллари, хусусияти. – Тошкент.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти. – 2011. –Б.106.

⁶⁷ Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати/ ЎзР Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, таҳрир хайъати: Х.Султонов ва бошқ.: тузувчи ва маъсул муҳаррир Қ.Назаров. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаи ижодий уйи, 2009. Б.220

imkon yaratadi. Qarama qarshiliklar birligi va kurashi qonunida ham intuitiv metodning rivojini ko‘rinishimiz mumkin. Nazariy fizika asoschilaridan biri Nils Bor fikricha, manfiy va musbat zaryadlar bir birini inkor etsada, ular bir birini to‘ldiruvchi harakatni sodir etadi.⁶⁸ Intuitsiya shu tarzda kesishgan. Yangi o‘rganilayotgan metodlar bilan ham intuitiya kesishishi mumkin, lekin hozircha bizga ma’lum metodlar bilan uning aloqadorliklarini aniqlash.

“Ijod –insonning yangilik yaratishga qaratilgan konstruktiv faoliyati”⁶⁹ sifatida tahlil qilanadi. Inson yaratuvchilik faoliyatining xarakteriga ko‘ra ijodning ixtirochilik, ilmiy, ba’diy va texnik turlari mavjud. Ijod bu insonning tabiat va jamiyat qonunlarini ochish, bilish va o‘rganish asosida yangi mashina va mexanizmlar yaratish; insonning jamiyatda kishilarni boshqarishi, ularni uyushtirishi, birlashtirishi, ulug‘ ishlarga boshlashi va boshchilik qilishi, bir butun jamiyat ishlarini tashkil qilishi kabi qobiliyatlari nazarda tutiladi. Ilmiy ijodning ba’diy ijoddan farqi u tabiat va jamiyat va o‘z tafakkurida amal qiladigan qonun va qonuniyatlarini kashf qilish, bilib olish bilan bog‘liq bo‘lgan yaratuvchilik faoliyatini olib boradi. “Ijod natijasi o‘laroq ijtimoiy ahamiyatga molik moddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratiladi, ilgari ma’lum bo‘lmagan dalillar, xususiyatlar, qonuniyatlar kashf etiladi, bilish va o‘zlashtirishning yangi usullari ishlab chiqiladi.”⁷⁰

Dissertatsiyaning 3-bobi 2-paragrafi **“Ratsional va irratsional bilish faoliyatida intuitsiyaning sinergetik tahlili”** deb nomlangan bo‘lib unda ratsional va irratsional tafakkur tushunchalarining mazmun mohiyati, ular o‘rtasidagi dialektik munosabat hamda ularning intuitiv bilishdagi o‘rnini ilmiy falsafiy tahlil etilgan.

Hozirgi zamon falsafasida ijod tushunchasiga ikki hil yondoshuv mavjud bo‘lib, ulardan birinchisida ijod jarayonidagi intellektual fenomenga alohida ahamiyat berilsa, ikkinchi yondoshuvda shaxsning erkinligi asosida yotadigan ekzistensial fenomenga alohida urg‘u beriladi. Shu nuqtai nazardan olganda, ijod jarayonida inson ruhiyatining hissiy, ratsional va irratsional unsurlari o‘zaro faol munosabatda bo‘lib, bunda tadqiqotchining bilimi, malakasi, tajribasi va iste’dodi namoyon bo‘ladi.

Intuitsiya fundamental bilimlar asosida o‘z-o‘zini tashkil etuvchi, uzoq muddatli aqliy mehnat jarayonida pishib yetilgan g‘oyalarni tasvirlar vositasida taqdim etuvchi abstrakt metodologiya sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, intuitsiyada tasodiflar konstruktiv, barqaror ahamiyatga ega, ular kreativ fikrlashga imkon yaratadi.

“Intuitsiyaning murakkab, nochiziq, muvozanatsiz tizimlarda namoyon bo‘lishi” deb nomlangan dissertatsiyaning 3-bob 3-paragrafida intuitsiya sinergetik qonuniyatlarga binoan murakkab, muvozanatsiz, nochiziq tizim hisoblanishi,

⁶⁸ N. Bohr. On the Constitution of Atoms and Molecules, Part I // Philosophical Magazine. — 1913. — Vol. 26. — P. 1—24.

⁶⁹ Фалсафа энциклопедик луғат / ЎзР ФА, И.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. –Б 123

⁷⁰ И.Саифназаров, Г.Никитченко, Б.Қосимов. Илмий ижод методологияси, “Янги аср авлоди” – Т.: 2004 Б 9

intuitsiyaning murakkabligi, muvozanatsizligi va nochiziqligi xususiyatlari borasida fikr mulohazalar bayon etilgan.

Murakkablik xususida amerikalik olim Stiven Jonsonning mulohazalari diqqatga sazovordir. U murakkablik, tizimlar nazariyasi, g'oyalar nazariyasi, ta'lim-texnologiya-shaxsiy tajriba uyg'unligi, yangi innovatsiyalar, kelajak avlod va kelajakda arxitektura kabi ko'plab murakkab tizimlar xususida mulohaza yuritgan. Shu sababli, amerikalik olim Stiven Jonsonning fikricha: **“murakkablik** tizim yoki modelning xatti **harakatlarini** tavsiflaydi, uning tarkibiy qismlari turli yo'llar bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi va mahalliy qoidalarga amal qiladi”⁷³. Professor B.O.Turaev fikricha, “murakkablik bu o'rganilayotgan ob'ektning xususiyati. U qanchalik ko'zga tashlanmas bo'lsa, u qanchalik ko'plab tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo'lsa, uning ierarxik tarmoqlanishi qanchalik keng yoyilgan bo'lsa, uning aloqadorliklari qanchalik ko'p bo'lsa, uni o'rganishga imkoniyat qanchalik chegaralangan va kam bo'lsa u shu qadar murakkab ob'ekt hisoblanadi”⁷⁴. Olimning fikrlaridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, intuitsiyaning tushinish va tahlil qilishning chegarasi yo'q, uning ierarxik tarmoqlanishi keng, u ko'plab bilish shakllarini, sinergetika qonunlarini o'z ichiga oluvchi sistemalardan biri hisoblanadi. Bularning barchasi intuitsiyaning murakkablik xususiyatidir.

O'zbek olimlaridan I.Saifnazarov, G.Nikitchenko, B.Qosimovlar yozishicha: «Insonning tabiatni bilish jarayonida, biluvchi sub'ekt tabiatning jozibali, sirli, jumboqli, ba'zan hatto xavfli kuchlari bilan yakka yakkama yakkaga qolganida odamlarning ijodiy qobiliyatlari yorqin namoyon bo'ladi. Bilish jarayonidagi ijodda insonning barcha ma'naviy kuchlari: ong, aql-idrok, tasavvur, fantaziyalar, xotira, intuitsiya, sog'lom fikr va hayotiy tajriba bevosita faol ishtirok etadi»⁷¹. Muallif fikricha, bilish jarayoni yuqoridagi ta'riflardan tashqari o'zgacha bir ba'diy tasvirlarni ham o'zida aks ettiradiki, g'uyoki izlanuvchi olim o'rganayotgan ob'ekt bilan so'zsiz sirli suhbatni qurayotgan bo'lib tuyuladi. Bilish jarayonining bu qadar joziba kasb etishi, ilm egasiga o'zgacha zavq hissini beradi va natijada olimda mazkur ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishida zerikish, charchoq hissilarini sezilmaydi.

Tadqiqotchi fikricha, Intuitsiya – bir-biri bilan o'zaro ta'sirga ega qismlardan tashkil topgan, ma'lum bir mexanizm asosida faoliyat olib boradigan, o'z-o'zini tashkil eta oladigan uyushgan murakkablikka ega bo'lgan sistemadir. Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz o'rinliki, tizimlarning murakkablik xususiyati nisbiy ya'ni o'zgaruvchan hodisa sifatida belgilash mumkin.

Intuitiv bilish jarayonida faoliyat olib boruvchi, ishtirok etuvchi har bir element murakkablik xususiyatiga ega. Tadqiqotchi olim, izlanuvchi, muayyan soha vakili, ijod

⁷³ Johnson, Steven (2001). [Emergence: The Connected Lives of Ants, Brains, Cities](#). New York: Scribner. p. 19. ISBN 978-3411040742.

⁷⁴ Тураев Б ва бошқ. Синергетика 2: Назария ва амалиёт. – Тошкент: 2021.

⁷¹ Саифназаров И., Никитченко Г., Қосимов Б. Илмий ижод методологияси. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 41.

jarayoni, ma'lumotlar bilan ishlash, xotira, diqqat, hayol surish, ilmiy-tadqiqot olib borish, tajriba, olingan har bir ilmiy manbaning asosiga ilmiy falsafiy yondoshish va hokazo barchasi murakkab jarayonlardir.

Bob yakunida quyidagi xulosalar chiqarilgan:

1. Ilmiy bilimlar rivojida intuitiv bilishning o'rni o'ziga xos ratsionallik va irratsionallik, chiziqli va nochiziqli tafakkur mezonlari bilan taraqqiy etgani sari ilmiy muammoni teranroq anglab yetishga imkon yaratmoqda.
2. Ratsional tafakkur bevosita irratsional tafakkur chegara xududiga yaqinlashgani sari muammoni yanada teranroq o'rganishga va his qilishga olib keladi. Bundan tashqari klassik davrning asosiy xususiyati fanni rivojida asosiy e'tibor mexanikani o'rganishga bag'ishlangan. Bunda I.Nyuton, Galiley Galiley, Nikolay Kopernik, F.Bekon, Djon Lokk g'oyalarida chiziqli tafakkur elementlarini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi noklassik fan davri Albert Eyneshteyndan boshlanadi, bu davrning asosiy xususiyati termodinamikaga doir bo'lgan yangicha qarashlarni rivojlantirishga bag'ishlandi.
3. Termodinamikaning uchta qonuniga muvofiq issiqlik jarayonlari interopiya jarayonlari orqali tizimni rivojlanishi, ma'lum bir kashfiyotlar faqat tasodiflar tashqaridan emas, balki ichki energiyaga ham bevosita aloqadorligini isbotlashdi, ya'ni tadqiqotchi olimning ichki aqliy energiyasiga bog'liqligini asoslashgan. Tizimning rivoji har ikki holatga, ya'ni tashqi shart sharoit va ichki energiyani tashkil etishini aniqlashdi. Yopiq tizimlarning rivoji ichki energiyaga bog'liq. Ochiq sistemalarning rivoji ham ichki energiya qonunlariga amal qiladi. Postnoklassik fan davrida tizimning rivoji bevosita xaos va tartib, chiziqli va nochiziqli, murakkab va murakkab bo'lmagan tizimlarda intuitsiyaning ahamiyati bevosita inson bosh miyada kechadigan neyronlarning sinaptik, assotsiativ bog'liqligi bilan o'rganilmoqda.

Dissertatsiyaning «**Raqamli texnologiyalar asrida intuitiv va sinergetik-metodologik yondashuvlar dialektikasi**» deb nomlangan to'rtinchi bobida tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtirishda intuitsiya, intuitsiyaning ilmiy va ijtimoiy bashoratdagi ahamiyati va defolt sistemaning zamonaviy falsafada intuitsiyaning yangi metodologik yondoshuvi sifatidagi o'rni ochib berilgan.

Dissertatsiyaning 4-bobi 1-paragrafi "**Tabiiy-ilmiy bilimlar va suniy intellektning rivojlanishida intuitiv va sinergetik metodologiyaning roli**" ga bag'ishlanadi.

Tabiiy va ijtimoiy hodisalarni o'rganish va bashorat qilish masalalari o'rta asrlarda yashab ijod qilgan Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida muhim o'rin tutadi. Al-Xorazmiyning matematika, astronomiya, geografiya va tarix borasidagi qarashlari, Abu Nasr Forobiyning fozil jamiyat, insoniyatning baxtli kelajagi haqidagi, Abu Rayhon Beruniyning geologiya ilmiga oid qarashlari o'zining kelajakka

yo‘naltirilganligi bilan hozirgacha ahamiyatini yo‘qotmagan⁷². Hozirgi zamon postpozitivistik falsafasidagi tanqidiy ratsionalizm yo‘nalishining yirik vakillaridan biri Karl Popper: «Kelajak bizga qay darajada bog‘liq bo‘lsa, uni shu darajada bashorat qilish mumkin»⁷³, – degan edi.

Tadqiqotda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy sohasidagi rivojlanishning strategik ustuvor yo‘nalishini belgilashda intuitsiya bevosita ishtirok etishi haqida so‘z boradi. Bunda jamiyat kishilar ongida mazkur sohalarga nisbatan ijtimoiy bilim muhim ahamiyatga ega. Ma‘lumki, jamiyat o‘zining kelajakda erishishi mumkin bo‘lgan yutuqlari va yuksak taraqqiyoti uchun avvalo kishilarning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish chora tadbirlarini qonuniy tarzda ishlab chiqadi.

Dissertant fikricha, ijtimoiy hodisalarda ro‘y berayotgan, yoki ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqea-hodisalarni oldindan ilmiy bashorat qilish muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda kuzatilayotgan har bir voqea-hodisalar mohiyatida insonning ehtiyoj va manfaatlari yotishi, shubhasiz. Ularni ob‘ektiv va qonuniy ilmiy baholash muhim ahamiyatga ega. Shu bois mavjud ehtiyoj va manfaatlarni qondirishning samarali chora tadbirlarini ilmiy, intuitiv oldindan ko‘ra bilish va ishlab chiqish kishilar dunyoqarashida jamiyat haqida bilimlar shakllanishiga imkon yaratadi.

Dissertatsiyaning 4-bobi 2-paragrafi **“Intuitsiyaning ilmiy va ijtimoiy bashoratdagi ahamiyati”** deb nomlangan.

Ilmiy bashorat qadimdan faylasuf olimlarni qiziqtirgan asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Jamiyat va unda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqea hodisalar, ya‘ni bashorat tushunchasiga oid qarashlar Qadimgi Hindiston falsafasi, Xitoy Konfutsiychilik ta‘limotlari, Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlarida uchraydi: «Qadimgi Hind falsafasida oldindan ko‘rish amaliy faoliyatga bog‘liq ekanligi, tajribadan kelib chiqqan holda o‘tmish, hozir va kelajakda sodir bo‘ladigan voqea hodisalarni bashorat qilish mumkinligi haqida fikr yuritilgan». Mazkur manbalarda kelajakni bashorat qilish aniq bir bilimlarga tayanilgan: «Qadimgi Xitoy manbalarida bashorat tushunchasi «sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisa haqida oldindan hosil qilingan «bilim» tarzida tushunilgan.»

Bashorat kategoriyasida kelajak, rivojlanish, kutilayotgan strategik rejalarning amaldagi ifodasi, ehtimollik kabi tushuncha va munosabatlarning hilma xilligi yotadi.

Professor N.Shermuxeamedova yozishicha: «Bashorat o‘z gnoseologik tabiatiga ko‘ra gipotezani ilgari surishga yaqin turadi. Ammo gipoteza – o‘tmishni ham, hozirgi zamoni ham, kelajakni ham bilishga tatbiq etiladigan mantiqiy shakl, bashorat esa kelajakka yoki hali ma‘lum bo‘lmagan hozirgi davrga qarab mo‘ljal oladi»⁷⁴. Voqea va

⁷² Қаранг: Туленова К.Ж. Предвидение и реальность.- Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.-1998. –С.7-23.

⁷³ Поппер К. Нормальная наука и опасности, связанные с ней // Структура научных революций. – М.: АСТ, 2001. – С. 525–539.

⁷⁴ Shermuxeamedova N.A. Falsafaga kirish. – Toshkent: Noshir, 2020. – B.404

hodisalarni ro'y berishini oldindan bilish metodikasi uni quyidagi prinsiplar asosida farqlaydi: a) mifologik bashorat; b) kunlik yoki kundalik bashorat; v) ilmiy bashorat; g) ijtimoiy bashorat; d) intuitiv bashorat. Professor olim Z.Davranov fikricha: «Bashorat qilish uchun voqelikni mukammal bilishgina emas, balki, uni paydo qiluvchi qonuniyatlarni o'rganish ham talab etiladi. Ilmiy qonuniyatlar ilmiy bashoratning asosidir»⁷⁵. Bizning nazarimizda, intuitiv bashorat uslubida nafaqat ilmiy qonuniyatlarning, balki olimning voqea va hodisalarni teran nigoh bilan mohirona kuzatuvchanlik qobiliyati ham muhim ahamiyatga ega.

